

TO'G'RI SOLIQLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI VA SOLIQTIZIMIDAGI ROLI

TDIU Mustaqil tadqiqotchisi

Xo'jaqo'lov Ramshid Yunusovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamizda yangi taraqqiyot strategiyasida soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash hisoblanadi. Soliq salohiyatini hisoblash formulalari keltirilgan shuningdek soliq-siyosatini takomillashtirish, byudjetda xarajatlar ehtiyojlarini va tenglashtirish dasturlarining asosiy jihatlarini aniqlashda mavjud innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni takomillashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning keng ko'lamli usullarini qo'llash takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, mahaliy byudjet, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish: Davlat byudjeti tuzumidan va taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar, davlat funksiyalarini bajarish uchun byudjet daromadlarining lozim darajada shakllantirish har bir davlat uchun zarur hisoblanadi. Bu vazifa soliq siyosatini to'g'ri yuritishda hamda byudjet defitsitini qoplash usullarini tanlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi taraqqiyotning hozirgi bosqichida respublikamizda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish, tashabbusli byudjetni joriy etish bilan bog'liq masalalarini hal etish uchun ularning daromad manbalarini to'g'ri prognoz qilish orqali ularning daromadlarini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

To'g'ri (bevosita) soliqlar soliq tizimiga kiruvchi muhim soliq turlaridan biri hisoblanadi. Agar, soliqlarning o'zining ijtimoiy va iqtisodiy ildiziga qaraydigan bo'lsak,

ular davlatning muhim moliyaviy instrumenti sifatida yuzaga kelgan. Ya'ni, davlat bunday moliyaviy instrumentsiz o'zining faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatini yo'qotadi. Sababi davlat tizimiga kiruvchi, jamiyatga xizmat qiluvchi va iqtisodiy hamda sotsial-ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi usqurtma tizimlar (davlat organlari) ham jamiyatning bir maromda mavjud bo'lishi va uning rivojlanib borishi uchun muhim sanaladiki, ularning faoliyatini moliyalashtirish esa, iqtisodiy soha vakillari zimmasiga tushadi. Bu esa, soliq kabi moliyaviy instrumentlarni qo'llash orqali ta'minlanadi. Shu jihatdan olganda, soliqlar iqtisodiy sohadagi yaratilgan mahsulotlarning qiymat shaklidagi bir bo'lagini jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat tarkibidagi tuzilmalarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladigan muhim moliyaviy instrumentlardir deb baholash ham o'z iqtisodiy mazmuniga ega. Davlat jamiyat manfaatlarini ko'zlab turli xil soliqlarni joriy etar ekan, ularning amal qilishining butun boshli tizimni shakllantirishini taqozo etadi. Bu tizim esa, avval qanaqa soliqlar mavjud bo'lishi kerakligi, nimalarga soliq solinishi, soliqlarni kimlar to'lashi va qanday tartibdali, joriy qilingan soliqlarni qanday undirilishi kabi ko'plab iqtisodiy masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Agar, soliqlarning paydo bo'lishi va ularning turli xil ko'rinishlariga e'tibor beradigan bo'lsak, boshqa soliqlar singari to'g'ri soliqlar deb ataluvchi soliqlarning ham iqtisodiy-ijtimoiy mazmunini anglash imkoni bo'ladi.

Agar, boshqa soliqlar singari to'g'ri soliqlarning evlyusion yuzaga kelishi va rivojlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, formatsiyalashuvning feodalizm shaklini paydo bo'lishi va uning rivojlanib borishi yer egaligining feodal shakliga o'tishi, moliya, sud, boshqaruv masalalari ham yer egalariga tegishli bo'lib qoldi, umumdavlat xarajatlari ancha qisqardi, davlatning asosiy daromad manbalari uning mulkidan, regaliyalar (mulkdan foydalanish va boshqa huquqlarni berganlik uchun yig'imlar) ham bojlardan tashkil topib bordi. Feodal tarqoqlikning kuchayib borishi esa davlatlarning uyushmalarini va unga muvofiq soliqlarning ham takomillashib borishiga asos bo'ldi. Bu holat, ayniqsa, yer va savdo munosabatlari, keyinchalik esa manufaktura rivojlangan Yevropa davlatlarida, jumladan, Fransiya, Angliya va Germaniyada ancha shakllanib

bordi. Fransiyada XV asrlarga kelib qirollik va feodal katta yer egalarining o'rtasidagi qattiq ziddiyatlar oqibatida Fransiyada yirik markazlashgan davlat va uning o'ziga xos moliyaviy tizimi shakllandi. Bu vaqtlarda Fransiyada shaxslardan olinadigan to'g'ri soliq («taille personelle») va mol-mulkdan olinadigan («taille reille») to'lovlar asosiy soliq sifatida yuzaga keldi. XVII asrlarda soliqlar yanada keng rivoj oldi va uning soni ham ko'payib bordi. To'g'ri va egri soliqlar mamlakatning turli joylarida turlicha undirila boshlandi. Soliqlarning noto'g'ri taqsimlanishi, aristokratlarning soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashi, aholining zimmasiga soliq og'irligini oshib borishi, soliqlarni davlatdan undirish huquqini qo'lga kiritgan soliq undiruvchilarning soliq undirishdagi adolatsizligi, bir xil joylardan egri soliqlar undirilsa boshqa joylardan undirilmaslighi Fransiyada yirik to'ntarilishga sabab bo'ldi. Revolyusion hukumat esa avvalgi barcha soliqlarni bekor qilib, keyinchalik soliqlar davlat faoliyatining asosiy manbai ekanligidan kelib chiqib turli xil (asosan yer solig'i, daromad solig'i, mol-mulkdan soliq, jon boshiga soliq, yig'imlar va sh.k.) soliqlarni yanada ko'paytirishga majbur bo'ldi.

Fikrimizcha, to'g'ri soliqlarning yuzaga kelishida manufakturaning yuzaga kelishi ham alohida rol o'ynagan. Agar mohiyatiga qaraganda “manufaktura — bu mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin [mashina](#) hali mavjud bo'lmagan sharoitdagi [kooperatsiya bo'lib](#), unda ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi, yalpi ishchi kuchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa yalpi ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi, oddiy kooperatsiyadagidek qo'l mehnatiga asoslangan qurolga tayanadi. Shuningdek, u mehnat taqsimoti va qo'l hunari texnikasiga asoslangan korxonalar”¹ bo'lib, sanoat taraqqiyotining oddiy kooperatsiyadan keyingi 2-bosqichi hisoblanadiki? G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI asrning o'rtalarida vujudga kelib, bu davlat g'aznasining daromad manbasi sifatida sanoatlashgan korxonalarida yuzaga kelgan daromadlarni va ularga tegishli mulklardan soliqlarni joriy etishni yuzaga keltirdi. Bu esa, jamiyatda sanoatlashuvi bilan birga soliq to'lovchining o'zidan to'g'ri tartibda undirilishiga asoslangan yangi daromad manbalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shundan kelib

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Manufaktura>.

chiqish aytish mumkinki, manufakturalar ham to'g'ri soliqlarning yuzaga kelishining muhim iqtisodiy omillari bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar.

To'g'ri soliqlarning asosiy rollaridan biri jismoniy shaxslar va korxonalar o'rtasida soliqqa rioya qilishni rag'batlantirishdir. Adolatli va oqilona soliq siyosatini amalga oshirish orqali hukumatlar soliq to'lovchilarni soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishga undashi mumkin. Bu nafaqat soliq solinadigan bazani mustahkamlaydi, balki soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonch va hamkorlik hissini uyg'otadi.

To'g'ri soliqlar daromadlar tengsizligini bartaraf etadigan va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan tarzda tuzilishi mumkin. Yuqori daromadli shaxslar o'z daromadlarining katta qismini soliqlarda to'laydigan progressiv soliq tizimlari boylikni qayta taqsimlashda yordam berishi va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Tegishli soliq stavkalari va imtiyozlarni amalga oshirish orqali hukumatlar adolatli jamiyatni yaratishi va qashshoqlikni engillashtirishi mumkin. Aniq va ochiq soliq qonunchiligini ta'minlash, soliq to'lovchilarga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, soliq organlari va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish orqali soliq tizimida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish. Bu ishonchni kuchaytiradi, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytiradi va umumiy muvofiqlikni yaxshilaydi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Нормурзаев, У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954

Нормурзаев, У. (2023). Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида молия бозорининг долзарб муаммолари тадбиркорликни тенг рақобат шароитларини яратиш ҳамда яширин иқтисодий улушини қисқартириш йўлари.

Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 88–89. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19032>

Нормурзаев, У. (2023). Солиқ имтиёзлари бериш тартибини такомиллаштириш масалалари. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(1), 334–339. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51

Нормурзаев, У. (2023). Яширин иқтисодиётни камайтиришда солиқ органларининг аҳамияти. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(2), 215–221. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/66>